

MAISHIY MULOQOTNING O'ZIGA XOS LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (o'zbek va ingliz tillari misolida)

Bekmurodova Manzura Zohidjon Qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti Tarjima nazariyasi
va qiyosiy tilshunoslik kafedrasida Qiyosiy tilshunoslik va
lingvistik tarjimashunoslik yo'nalishi I -kurs magistranti.

Annotatsiya: Maqolada maishiy muloqotning o'ziga xos xususiyatlari tasniflarga bo'linib qiyoslanayotgan tillardagi badiiy asarlardagi misollar orqali ikki millatning lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: maishiy muloqot, lingvomadaniy xususiyat, kommunikativ maqsad, nutq, dialogik jarayon.

Kirish: Maishiy muloqot bu har sohada ishlatiladigan kundalik muloqotdir. Insonlar birlari bilan muloqotda bo'lganida turli lisoniy vositalar – so'z, iboralar, gaplar va ularning variantlaridan foydalanadilar. Dialog olib boryotgan kishilarning muloqotidan va foydalanayotgan so'zlaridan ularning millati va madaniyati haqida osongina bilib olish mumkin. K.Marks va F.Engelslar «Nemis mafkurasi»da muloqotni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri deb atashadi¹⁵⁵. Haqiqatdan ham, kundalik hayotimizni diaologlarsiz va muloqotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson ongi muloqot jarayoni natijasida o'sib, dunyoqarashi kengayib boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Maxsudova M. o'zining “Muloqot psixologiyasi” o'quv qo'llanmasida B.F.Lomovning tadqiqoti bo'yicha muloqotning funksiyalariga ko'ra tasniflarini keltirib o'tgan va olim L.A.Karpenko taklif etgan tasnifga ko'ra muloqotni bir qancha vazifalarga bo'lib chiqqan. Shuningdek, L. S. Vigotskiy, A.N. Leontev, A.R. Luriya, D.B. Elkonin tadqiqotlariga ko'ra, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri bu — muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V. Zaporojes va M.I. Lisina izlanishlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji yetti yoshgacha bir nechta bosqichlarda rivojlanib boradi¹⁵⁶.

Tahlil va natijalar. Maishiy ya'ni kundalik muloqotimizni quyidagi kategoriyalarga ajratib o'rganishimiz mumkin:

Bolalar muloqoti

Ayollar muloqoti

Erkaklar muloqoti

Keksalar muloqoti va boshqa ko'pgina sinflarga ajratib va bu muloqotlarni ingliz tilidagi variantlari bilan qiyoslash orqali lingvomadaniy xususiyatlarini osongina ochib berishimiz mumkin.

Maktab yoshidagi bolalar deyarli butun kunini maktabda va darsdan keyingi mashg'ulotlarda o'tkazadi. Buning natijasida bu kategoriyaga mansub bolalar kun davomida sinfdoshlari, ustozlari va asosan o'zining tengdoshlari bilan muloqot olib boradi. Bu muloqotlar natijasida ular fikr almashinadilar, dunyoqarashlari kengayadi va ba'zan o'zlarini tengdoshlariga solishtirish

¹⁵⁵ <https://goaravetisyan.ru/uz/ponyatie-obshcheniya-v-socialnoi-psihologii-socialnaya-psihologiya-tema/>

¹⁵⁶ G'oziyev E. Muomala psixologiyasi. T.2001.B.-23.

hodisalari kuzatiladi. M.A.Qurbonovanning qayd etishicha, bolalar ko'pincha xabar, buyruq, so'roq aktlari orqali nutqiy ta'sir ko'rsatishni mo'ljallaydilar¹⁵⁷. Quyida bolalar nutqida kuzatiladigan ayrim muloqotlarni tahlil qilamiz:

Cho'ntagingdagi nima u, pul emasmi, axir? - Yo'q, amaki, - dedi bola oldingidek samimiy va jiddiylilik bilan yirtiq cho'ntagini ag'darib ko'rsatarkan (ikkinchisi tikib tashlangandi).

Demak, pullaring tushib qolibdi-da. Chopgan joylaringni qidir. Topasan. Ular jim qolishdi. (Chingiz Aytmatov)

Ushbu muloqotda yosh bolaning samimiyligi, soddaliligi va ohang, “Yo'q, amaki” muloqoti orqali anglashilinadi

Quyidagi ingliz tilidagi misollarni ham ko'rib chiqamiz:

Nothing! Ha haaa! Told you I wouldnt say nothing if you didnt say please! Ha haa! Haaaa!
And they heard the sound of Peeves whooshing away and Filch cursing in rage. (Harry Potter)

Bu parchada yosh bolalarga xos zavq, beg'uborlik, qiziqish ushbu muloqotda namoyon bo'lgan. Yuqoridagi asarlardan olingan parchalardan ko'rinadiki, bolalar muloqotlarning o'ziga xos xususiyatlari o'zbek bolalarida ham, ingliz bolalarida ham farqlash mushkul.

O'zbek muloqot madaniyatida keksalar nutqi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, ularning nutqida pand-nasihatlarning ko'p uchrashi ham alohida e'tiborga loyiq. Shuningdek, keksalar muloqotida o'zbeklarga xos bo'lgan samimiylik, mexribonlik va keksalarning yoshlarga nisbatan rahm-shavqati yaqqol sezilib turadi.

— *O'g'lim, Otabek. — So'zlangiz. — Aytingiz-chi, men sizning kimingiz? Otabek, Hasanalining maqsadig'a tushunolmay majhul unga nazar tashladi: — Sizmi? — deb kulimsiradi. — Otam bo'lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz — ya'ni ma'naviy otam. — Barakalla, o'g'lim, — dedi Hasanali, — javobingiz o'z o'ylag'ananimchadir.* (Abdulla Qodiriy)

Yuqoridagi muloqotda Hasanali otaning “Barakalla, o'g'lim” va Otabekning “ma'naviy otam” gaplari e'tiborga loyiqdir. Chunki bu gapda o'zbek millatining chin insoniy xislatlari namoyon bo'lgan. O'zining xizmatkori bo'lgan bir keksa qariyani ota darajasiga ko'tarishi va o'ziga butunlay begona bo'lgan yigitni o'gil darajasiga loyiq ko'rish faqatgina o'zbeklarga xos xislatlar hisoblanadi. Adib manashu xislatlarni Otabek va Hasanali obrazlarining muloqoti orqali ko'rsatib bergan.

O'zbek millatining keksalari muloqotda, asosan, gaplar duo, pad-nasixat, quvonch kabi ma'nolarni anglatga, ingliz millatida biroz qo'pollik ko'rinib turadi.

Idiot boy!” snarled Snape, clearing the spilled potion away with one wave of his wand. — I suppose you added the porcupine quills before taking the cauldron off the fire? (Harry Potter)

Bu muloqotda katta yoshli odamning bolalarni urishayotgani gaplaridan ma'lum.

— *Endi qanday kengash berasan, xotin?*

Oftob oyim o'z fikrini ochiq aytishka yuraksina olmas, erining ko'ngli olinishidan qo'rqar, ammo — «musofir» masalasiga jonu dildan qarshi edi.

— *Siz muvofiq ko'rgan bir ishqa qarshi tushib, ra'yingizni qaytaraolmayman, — dedi ko'b o'ylag'andan keyin Oftob oyim, — chunki nima bo'lg'anda ham siz-ning otaliq ismingiz bor, ham ko'broq ixtiyor sizning qo'lingizdadir.* (A.Qodiriy)

¹⁵⁷ Qurbonova M.A. O'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2018. – B. 214.

Ushbu parchdagi er-xotin muloqotidan o'zbek xalqining milliyliigi, madaniyati, ayollar iffati va go'zal xulqi yaqqol ko'rinib turibdi. Oftob oyim erining fikriga aslida qarshi bo'lsada andisha qilib unga azm-qaror o'zida ekanligini parchadagi muloqot jarayonida bayon qilgan.

Mashhur nemis olimi V.Gumbolt tilda millat ruhining aks etishi masalasi haqida fikr yuritar ekan, millatning xarakterini axloq-odobi, xatti-harakatlaridan ko'ra tiliga qarab osonlik bilan bilib olish mumkinligi haqida gapirgan edi. Uning "Til – millat ko'zgidir" degan oqilona fikri bejiz ilgari surilmagan¹⁵⁸. Darhaqiqat, til insonning jinsi, yoshi, kasb-kori, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, nafaqat uning o'y-fikrlarini, balki ichki olami, dunyoqarashi, milliy-madaniy qarashlarini namoyish qiluvchi qudratli vositadir.

— *Ba'zi yumushlar buyursam...*

— *Buyuringiz, o'g'lim.*

— *Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.*

— *Xo'b, begim.* (Abdulla Qodiriy)

Erkaklar o'rtasidagi bu muloqotda "*Buyuringiz, o'g'lim*" gapi boyning quli yoki ishchisi tomonidan aytilganligi ko'rinib turibdi. Shuningdek, bu muloqotda o'zbek xalqining uzoq tarixini ko'rishimiz mumkin.

"You dont mean that our money is worthless?" Joseph pleaded.

"Of course not. But you must have dollars, American money."

"Yes, yes, of course." He explained the matter to Anna.

"Women," he said to the immigration inspector. "And she's carrying. She was sick on the passage". (Howard Fast).

Yuqoridagi gapdan buruq ohangi anglashinib turibdi. O'zbek millatidan farqli o'laroq, ingliz xalqida ishchilarga nisbatan qo'pol muomalani ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Maqolada muloqot kishilarning o'zaro ijtimoiy munosabatini ko'rsatuvchi kategoriya sanaladi. Yuqorida maishiy muloqot jarayonidagi gaplarning ijtimoiy munosabatlarda ishlatilishini bir necha turlarga bo'lib o'rganib chiqdik va tahlil qildik. O'zbek va ingliz xalqi o'ziga xos nutqiy va muloqot etiket turlariga ega, ulardan o'z o'rnida foydalanish esa alohida e'tiborni talab qiladi va bu xar bir millatning eng muhim tamoyili hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
2. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
3. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
4. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.

¹⁵⁸ Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М.: Наука, 1985.

5. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 573-578.
6. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – С. 187-190.
7. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
8. 1. Solovova E.N. Chet tillarni o'qitish metodikasi. Ma'ruzalarning asosiy kursi.- M.: Ta'lim, 2002 - 238 b.
9. 2. Saxarova I.I. Chet tilini o'qitish metodikasi. O'quvchi.- M.: Ta'lim, 1999 - 203 b.
10. 3. Jalolov J.. Chet til o'qitish metodikasi.-T.: O'qituvchi, 2012.-59-60 b.
11. 4. Crandall J.J. Cooperative language learning and affective factors. – Cambridge, UK: Cambridge University Press. 1999. – P. 226-245
12. 5. Ellis R. The place of grammar instruction in the second/foreign language curriculum. In E. Hinkel & S. Fotos (Eds.) *New perspectives on grammar teaching in second language classrooms.* – Mahwah, N.J.: Lawrence Erlbaum. 2002. – P. 17-34.
13. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
14. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." *Конференции*. 2021.
15. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
16. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
17. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
18. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
19. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
20. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
21. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.

22. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).
23. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М.: Наука, 1985.
24. Islomjonova X.I., Annazarova T.D. Paralingvistik vositalarning gender xususiyatiga oid lingvopragmatik tahlil / XXI asr: Fan va taъlim masalalari. №4, 2018. – Б. 7.
25. Lakoff R.T. Language and Woman’s Place. – New York:Harper and Row, 1975. – P. 48-49.
26. Qurbonova M.A. O‘zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2018. – B. 214
27. O’Barr W.M. and Atkins B.K. “Women’s Language” or “Powerless Language” In Language and Gender: A Reader, by Jennifer Coates. Oxford: Blackwell, 1998. – P. 377–387.
28. O’Connell D.C., Kowal S. & Dill E.J III. Dialogicality in TV news interviews // Journal of Pragmatics. – Netherlands, 2004. – P. 185-205.
29. G'oziyev E. Muomala psixologiyasi. T.2001.B.-23.
30. Buriyeva U.A. Diskursiv tahlilda voqelangan to’liqsiz gaplar va ularning sotsiopragmatik xususiyatlari (o‘zbek va ingliz tillari misolida). Toshkent.2022. B.-135.